

**XITOY VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLAR MA'NOVIY  
GURUHLANISHINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI**

*Tashmuxamedova Dildora Aziz qizi*

[Dildora\\_Azimova\\_98@mail.ru](mailto:Dildora_Azimova_98@mail.ru)

*Oriental universiteti*

*G'arb tillari kafedrasi stajyor - o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Xitoy va o'zbek tillari turli tillar oilasiga mansub bo'lishiga qaramasdan, ikki til grammatikasi o'rtasida umumiy jihatlar ham uchrab turadi. Dunyodagi barcha tillarda mayjud bo'lgan undov so'zlar xitoy va o'zbek tilarida bir-biridan farq qilgan holda talqin qilinadi va semantik guruhlarga ajratiladi. Ushbu maqolada xitoy va o'zbek tillarida ushbu ikki til undovlarining semantik guruhlanishi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** undovlar, semantik guruhlanish, ijobiy emotsiyonl undovlar, salbiy emotsiyal undovlar, hayrat undovlari, og'riq undovlari, g'azab na nafrat undovlari.

Xitoy tili murakkab tillar oilasiga kirganligi bois undagi undovlarning semantik guruhlanishi masalasi ham biroz munozarali mavzulardan hisoblanadi. Xitoy tilshunoslarining bu boradagi fikrlari unchalik keskin farq qilmasa-da, aniq xulosaga erishilmagan. Uni o'zbek tilida undov so'zlar va ularning semantik turlarga ajratilishi bilan chog'ishtirma tahlil qilish orqali chuqurroq tushunishimiz uchun quyida ikki tildagi undov so'zlar guruhlanishini ko'rib chiqamiz.

"Hozirgi amaliy xitoy tili grammatikasi" kitobida yozilishicha, undov so'zlar umumiy holda 9 ma'noviy guruhga ajraladi<sup>1</sup>.

1. Qoniqish va mammuniyat undovlari (表示得意, 高兴, 欢乐 *biǎoshì déyì*, *gāoxìng*, *huānlè*): 哈哈, 嘻嘻, 嘿嘿. Bu so'zlar asosan iqtiboslarda keng qo'llanilib, birinchi qismi ohang bilan, ikkinchi qismi esa yengil talaffuz etiladi.

---

<sup>1</sup> 实用现代汉语语法 *Shíyòng xiàndài hànyǔ yǔfǎ* 刘月华, 潘文娟, 故韓 – 商务印书馆出版社 2001, 441-448.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

2. Tushkunlik va g'am-qayg'u undovlari. (表示懊恼, 叹息, 哀伤 *biǎo àonǎo, tànxǐ, āishāng*): 唉*āi*, 嘿*hāi*, 咳*hāi*.
3. Zavq va havas undovlari (表示赞叹, 羡慕 *biǎoshì zàntàn, xiànmù*): 喝*hē*, 呵*hē*, 嘴*hē*, 啊*a*, 噙*í*, 嘴*é*, 嘴嘴*é zé*.
4. Hayrat undovlari. (表示惊讶 *biǎoshì jīngyà*): 哟*āiyā*, 哟*āiyō*, 嘭*yō*, 呀*ya*, 哟*ó*, 嘴*hē*, 嘴*huō*, 嘴*yí*.
5. Norozilik, shikoyat undovlar. (表示不同意, 埋怨或申诉 *biǎoshì bù tóngyi, mányuàn huò shēnchì*): 暖*āi*, 哟*āiyā*, 哟*hēng*.
6. Nafrat va g'azab undovlari. (表示轻蔑, 不满或气愤 *biǎoshì qīngmiè, bùmǎn huò qìfèn*): 哟*hēng*, 呸*pēi*, 呵*hē*, 喝*hē*.
7. Xabardorlik va tushunganlikni ifodalovchi undovlar. (表示醒悟 领会 *biǎoshì xǐngwù, lǐnghuì*): 哟*ō*, 唔*wú*, 噙*wú*, 啊*a*.
8. Chaqirish va javob undovlari. (呼唤 应答 *hūhuàn, yìngdá*): 暖*ei*, 噙*ng*, 哟*āi*, 嘴*hei*, 喂*wèi*.
9. Savol undovlari. (表示追问或出乎意料 *biǎoshì zhuiwèn huò chū hū yǐliào*): 噙*eng* (kutilmagan gapni eshitib tushunmaganda, qatya so'rash uchun qo'llaniladi), 啊 (yaxshi eshitilmay, tushunmaganda, qayta so'rash uchun qo'llaniladi).

O'zbek tilida undovlarning guruhanish masalasi xitoy tilidagidan biroz farq qilib, o'zbek tilshunoslari ularni avvalo umumiyoq bo'lgan guruhlarga ajratishni, so'ng kichik turkumlar hosil qilishni tavsiya qiladilar. O'zbek tilida undovlar ma'no jihatiga ko`ra 2 turga bo`linadi.<sup>2</sup>

1. Emotsional. Bu tur undov so`zlar kishilarning his-tuyg`usi, ruhiy holatini, biror holarga psixologik jihatdan qanday yondoshayotganini ifodalaydi. Emotsional undovlarning o`zi ham 2 xil.

- 1) Ijobiy emotsional.
  - a) shafqat, mehribonlik – iye, oh, o;
  - b) sevinch, zavqlanish, havas – voy, ho, o`h-ho`;
  - c) qoyil qolish, rohatlanish – hay-hay, voy, o;

<sup>2</sup> O'zbek tili grammatikasi, 2 jildli, 1-jild. – Toshkent: Fan, 1975.

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

2-to'plam 2-son dekabr 2023

e) mammuniyat, faxrlanish, xayrixohlik – e-ha, ha, ehe, o`h-ho`, ha-ya, o`;

f) undash, ogohlantirish, tasdiq – hay-hay, ha.

2) Salbiy emotsional.

a) e'tiroz, norozilik, shikoyat, zorlanish – ha, ho, voyey, voy, oh, uh, obbo;

b) jirkanish, nafrat, g`azab, jahl – e, eh, voy, he, ha;

d) achinish, afsuslanish – he, eh, oh;

e) kinoya, kesatiq, piching, koyish – obbo, o`ha, o`h-ho`, ho-o, hay-hay, hoy-hoy;

f) tanbeh, ogohlantirishm kutilmaganlik – e, hay-hay, iya;

g) g`am-g`ussa, qayg`u, o`kinch – eha, oh, eh, voy-yey;

h) cho`chish, vahima, dahshat – voyey, oh, o, voydod;

i) ajablanish, hayratlanish, ranjish – i, e-e, bay-bay-bay, he.

2. Buyruq-hitob. Bu tur undovlar kishilarga nisbatan ularning diqqatini tortish, ogohlantirish yoki jonivorlarni biror ishni bajarish yoki bajarmaslikka undash kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu tur undovlar ham o'z ichida turlarga ajraladi.

1) Odamlarga qaratilgan undovlar

a) kishilar diqqatini so`zlovchiga qaratuvchi – hoy, hey, ey, allo;

b) ta'kid, buyurish ma'nolarini ifodalovchi – tss, jim, qani, tek.

2) Hayvon va jonivorlarga qaratilgan undovlar. Bu kabi undovlar hayvonlarni to`xtatish, chaqirish, haydash, tinchitish, undash maqsadida qo`llaniladi – tu-tu, kuch-kuch, mah-mah; dirr, xo`sh, taq, ish; pisht, kisht, xix, kish-kish.

Bundan tashqari, bir qancha olimlar tilda rasm-odatlar blan bog`liq bo`lgan so`zlarni ham undovlar tarkibiga kiritadilar. Salomlashish, xayrlashish, so`rashish, tashakkur, minnatdorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi bu guruh so`zlar yetarlicha bo`lib, undov so`zlarning ma'noviy jihatdan 3-turi deb atalishga loyiq. Biz, shu o`rinda, undov so`zlarning 3-turini shaxsiy etiket undovlari deb nomlashni taklif qilamiz.

3. Shaxsiy etiket undovlari – assalomu aleykum, salom, xayr, esonmisiz, omonmisiz, hormang, bor bo`ling, rahmat, minnatdorman.

Ikki til undov so‘zlari semantik guruhanishidagi asosiy farq shundan iboratki, xitoy tilida undovlarni olimlar asosan birdan kichik guruhlarga ajratadilar. O‘zbek tilida undovlar esa, avvalo salbiy-ijobiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra guruhanadi va ifodalaydigan ma’nosiga ko‘ra turlarga ajratiladi. Bundan tashqari, o‘zbek tili undovlarida xitoy tilida yo‘q bir xususiyat ham bor, nutqiy odat so‘zlari ham undovlar tarkibiga kiritiladi. Bu esa o‘zbek tilida undov so‘zlarning grammatikada tutgan o‘rnini yanada yuqoriga ko‘taradi. Ikki til undovlaridagi umumiyligi esa, ulardagi hayrat, g‘azab va nafrat, his-hayajon, qo‘rquv kabi holatlarni ifodalovchi undovlar guruhining mavjudigidadir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xitoy tilida undov so‘zlar faqatgina insonning emotsiyonal holatini ifodalaydi va o‘z ichida ana shu emotsiyonal holat turlariga ko‘ra guruhlashtiriladi. O‘zbek tilida esa undovlar, avvalo, ijobiy yoki salbiy holatni ifoda etishiga ko‘ra turlarga ajratiladi. Nutqiy odat so‘zlari ham undovlar tarkibida bo‘lib, alohida guruhni tashkil etadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. JAMOA. (A.Nurmonov, A.Sobirov va Sh.Yusupova) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitoblar. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik.) (2-nashr). – T.:“ILM ZIYO”, 2015.
2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O`qituvchi, 1981.
3. 实用现代汉语词法 *Shíyòng xiàndài hànyǔ yǔfǎ* 刘月华, 潘文娟, 故障 – 商务印书馆出版社 2001.
- 4 现代汉语词典 : 2002年增补本 (大字本) / 中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。— 北京 : 商务印书馆、2002、1787页